



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
O‘LIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

Bo‘riyev Otabek Mahmadalivichning

*“5310200 “Psixologiya” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr
darajasini olish uchun*

“Qadriyatlar shakllanishining psixologik omillari” mavzusida yozgan

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

Ilmiy rahbar : o‘q.I.Jabborov

“Himoyaga tavsiya etildi”

Pedagogika – psixologiya fakultet

dekani _____ dots.SH.Nurillayeva

“ _____ ” 2014 yil

Qarshi - 2014

Mundarija

Kirish.....	3
I-Bob. Qadriyatlar shakllanishining psixologik asoslari.....	7
1.1. Qadriyatshunoslik va uning sharqona ildizlari.....	7
1.2. Qadriyat va uning psixologik mohiyati.....	17
II-Bob. Umuminsoniy va milliy qadriyatlar.....	21
2.1. Umuminsoniy qadriyatlar.....	21
2.2. Milliy qadriyatlar.....	33
Xulosa.....	43
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	46

Kirish

O'zbekiston mustaqilikka erishgandan so'ng qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Mamlakatimizda umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi e'tirof etildi, milliy qadriyatlar hamda shaxs manfaatlarining umumbashariy talablarga moslashtirish va uyg'unlashtirish asosiy vazifaga aylandi. Insoniyat foydadan ko'ra qadriyatni qiymatdan ko'ra qadriyatni ustivor biladigan zamonlar yaqinlashib qolmoqda.

Qadriyatlar falsafasining tarixi uzoq bo'lsada, bu to'g'ridagi fan aksiologiya o'tgan asrning o'rtalarida shakllandi. Bu atama ilmiy bilimlar sohasiga o'tgan asrning ikkinchi yarmida nemis aksiologi E.Gartion va fransuz olimi P.Loni tomonidan kiritilgan. Aksiologiyani qadriyatlar to'g'risidagi fan yoki to'g'ridan-to'g'ri qadriyatshunoslik deb atash mumkin.

Har bir fanga o'z nomini bergan asosiy tushunchalar bo'lgani kabi qadriyat tushunchasi ham qadriyatshunoslik atamasi uchun shunday asos rolini bajaradi. G'arbda bu atama grekcha "axio" (qadriyat) va "logos" (fan, ta'limot) tushunchalariga asoslanadi.

Qadriyatshunoslik aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilim, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to'planagan qadriyatlar tuyg'usidagi bilimlar sistemasidir.

Inson va uning qadri muammalari – falsafaning azaliy mavzularidan biridir. Odam zotining dunyoga kelishi, boshqa jonzotlardan farqi, tabiat va jamiyatdagi o'rni insoniy fazilatlari shaxsiy xususiyati to'g'risidagi masalalar hamma davr faylasuflarining diqqat markazida turgan. Fan sohasida odamning jismoniy tuzilishi, tabiatik-biologik xususiyatlarini o'rganish hamon davom etmoqda. Ijtimoiy fanlarda esa shaxs kamoloti, uning ijtimoiy, ma'naviy qiyofasi va kamoloti bilan bog'liq jihatlari tadqiq qilinmoqda. Xullas, odamzot uchun o'ziga o'xshagan boshqa kishilar, ularning xususiyatlari, jamiyatdagi o'rni, qadri, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq muammolar azal-azaldan asosiy tatqiqot va kuzatish obyekti bo'lib kelgan.

Olamdagi insonlarning yashash joylari, o'tmishi avlodlarning xoki yashiringan zamin, o'zi tug'ilgan yurti bilan bog'liq umuminsoniyatga xos bokira tuyg'ulari bor. Bu tuyg'ular tug'ilgan uydan, mahalla, qishloq, shahar ko'chasidan tarbiyalana boshlaydi, kishi mansub bo'lgan tarixiy birlik, uning o'tmishi bilan bog'langan ijtimoiy hududga nisbatan munosabatda namoyon bo'ladi. Kishi Yer sayyorasining farzandi ekanini, o'zi uchun suyukli hudud sayyoraning tarkibiy qismi bo'lgan Vatan ekanligini anglaganda, undagi bu tuyg'u umuminsoniylik talabiga mos keladigan darajaga ko'tariladi.

Umuminsoniy qadriyatlar va ularning asosiy shakllari xilma-xil tarzda rang-barang holat va turli darajalarda namoyon bo'ladigan g'oyat murakkab mazmunan nihoyatda boy va serqirra ijtimoiy tushunchalardir.

Qadriyatlar tizimida millat unga xos belgilar jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelishi jarayonlariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatgan hudud va u bilan bog'liq tuyg'ular, millatning o'tmishi, tarixi, madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma'naviy meros bilan bog'liq qadriyatlar ham muhim o'rinni egallaydi. Bu qadriyatlar biror millat kishilari uchun umumiy bo'lib hisoblanadi. Ular alohida shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi xalqlardan biridir. Muayyan kishi yoki shaxs umuminsoniy qadriyatlarni anglashda, o'z faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda miliy qadriyatlarni hisobga oladi, ular bilan bog'liq jihatlarni ham nazarda tutadi.

Dunyodagi xalqlar orasida aynan shu millatning borligi, mavjudligi, betakrorligi, "Ko'hna tarix shodasida bitta marjon" (E.Voxidov) sifatida zohirligi har qanday kishi uchun ahamiyatga ega bo'lishi tabiiy. Millat – har qanday milliy qadriyatlarning obyekt, milliy qadriyatlar tizimi tayanadigan ijtimoiy asosidir. "Millat" atamasi qadriyat obyekt sifatida tushunilganida bir-biri bilan qon-qarindosh xalqlariga nisbatan ishlatiladigan "turkiy" xalqlar, "slavyanlar", "roman xalqlar" kabilarga umumiylik mos keladi.

Millat bir tomondan o'zining qadriyatlari muttasil vujudga keltirib turadi, o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularning doimiy takomillashtirib turadi. Ikkinchi tomondan esa uning o'zi ham mavjud qadriyatlar tizimi ta'sirida o'zgarib rivojlanib boradi. Millat o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida takomillashtirib turishi ma'nosida o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi makon va zamondagi ilgarilanma harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularning o'tmishdan kelajakka tomon yetkazib beradigan eng asosiy obyektidir.

Millatning tanazzuli – milliy qadriyatlarning tanazzulidar! Bu oqibat natijasida ushbu qadriyatlarning egasiz qolish hafini tug'diradi. Insoniyat – tarixi muayyan etnoslarning vujudga kelishi taraqqiyoti va tanazzuli, ularning o'rniga boshqalari vujudga kelishidan iborat jarayonlardir, deya e'tirof qilishni butunlay noto'g'ri deyishi qiyin. Bunday qarash esa o'z navbatida g'oyat muhim va dolzarb masalaga, ya'ni millat milliy qadriyatlarining obyekti va egasi sifatida o'z-o'zini saqlab turmog'i, o'zining avlodlarini asrab-avaylamog'i lozim, degan masalaga olib keladi.

Shu bois, biz bitiruv malakaviy ishimiz uchun tanlagan “Inson qadri, shaxsiy qadriyatlar va ularning psixologik talqini” mavzusi hozirgi kunda o'ta dolzarbligi bilan xarakterlidir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Qadriyatlar shakllanishining psixologik asoslarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.

- 1.Qadriyatshunoslik va uning sharqona ildizlarini o'rganish.
- 2.Qadriyatlar va uning psixologik mohiyatini yoritish.
- 3.Qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllarini o'rganish
- 4.Umuminsoniy qadriyatlar va ularning mohiyatini tavsiflash.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Milliy va umuminsniy qadriyatlar, ularning shakllanish qonuniyatlari.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Qadriyatlarning shakllanishi bilan bog‘liq ijtimoiy – madaniy hududiy va milliy psixologik shart-sharoitlar, qonuniyatlar ularning turlari va psixologik talqini.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati. Milliy qadriyatlar, inson qadri va shaxsiy qadriyatlarning shakllanishi bilan bog‘liq milliy madaniy hamda milliy-psixologik omillarini o‘rganish va ulardan hayotiy hamda amaliy faoliyatda foydalanishi yosh avlodni ma’naviy yuksalishi va mamlakatning milliy madaniy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Qadriyatlar shakllanishi bilan bog‘liq umuminsoniy, milliy madaniy hamda milliy psixologik omillarni (manbalarni) o‘rganish va ulardan hayotiy hamda amaliy faoliyatda foydalanish yoshlarning ma’naviy yuksalishi va milliy-madaniy taraqqiyotimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob – uni tashkil etgan beshta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I-Bob. Qadriyatlar shakllanishining psixologik asoslari

1.1. Qadriyatshunoslik va uning sharqona ildizlari

Insonning o'zini qurshab turgan olam bilan o'zaro birgalikdagi harakati odamlar o'rtasidagi ularning ijtimoiy hayoti va ishlab chiqarish faoliyati jarayonida tarkib topadigan ob'yektiv munosabatlar sistemasida yuz beradi. Kishilar ishlab chiqarish jarayonida tabiatgagina emas, balki bir - birlariga ham o'zaro ta'sir ko'rsatadilar. ("Pedagogik muloqot" -1-8 bet)

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablariga muvofiq ta'lim - tarbiya ishlarida milliy - madaniy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga e'tibor berib kelinmoqda. Bu ustuvorlik turli xildagi muloqotlarda ham saqlab kelinsa maqsadga muvofiqdir. Bunda ayniqsa, Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ko'rsatib berilgan O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy axloqiy negizlari:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik
- kabilar turli muloqotlarda asos bo'lib xizmat qilishi lozim.

Milliy qadriyatlarimiz va sharqona tarbiyamizning ta'siri muloqotda ham sezilib turadi. Bizda kishilar bilan munosabat, so'zlashuv va shuningdek ish, xizmat bilan bog'liq aloqaga muomala deyiladi. Eng go'zal muomala lutf - karamdir. A.Navoiy buni muomala - pardo deb yozadi. Xullas xalqimizda odamlar bilan munosib tarzda muomala qila bilishlik madaniyat, olijanoblik alomati deb tushunilgan.

Muomala madaniyati, eng avvalo, xalqimizning bolajonligi, oilani muqadas bilishida namoyon bo'ladi.

Ikki notanish o'zbek yigiti uchrashib qolsa, salom - alikdan keyingina suhbatni "Uylanganmisiz?" degan gapdan boshlaydi. Agar ular 30 yoshlarda bo'lsa savol boshqacharoq bo'ladi: "Og'ayni bolalardan nechta?" Ha, kasb - kor, uy - joy, boylik va shu kabi moddiy jihatlar surishtirilmaydi, bu odob doirasiga kirmaydi

ham, lekin bola - chaqadan soʻz ochish oʻzbeklarga xos milliy odatlardandir. Ota - ona uchun farzandlari haqida maqtoʻv eshitish, "Otangga rahmat" degan olqish ham eng katta saodatdir.

Oʻrta yoshdagi tanish yoki notanish erkaklar va ayollar muloqotida "hammasidan qutilganmisiz?" degan savol uchrashi tabiiy. Oʻgʻillarini uylantirib, qizlarini uzatib boʻlganmisiz? Ota - ona farzandlarini oilali, uy - joyli qilish tashvishi bilan yashaydi, bu ular hayotining mazmuni boʻlib qoladi.

Barcha madaniy xalqlarda boʻlgani kabi oʻzbeklarda ham muomal "Assalomu - alaykum" va "Vaalaykum assalom"dan boshlanadi, keyin hol-ahvol soʻrashishga oʻtiladi.

Muomala va muloqotda xalqimizning milliy anʼanalari va urf-odatlari ham taʼsirini koʻrsatadi.

"An'ana" arabcha soʻz boʻlib, uzoq zamonlardan beri avloddan - avlodga, otalardan bolalarga oʻtib davom etib kelayotgan urf - odatlar, axloq mezonlari, qarashlar va shu kabilardir. Xalqimizning ilgʻor anʼanalarini oʻzlashtirish, unga rioya qilish va boyitib borish lozim.

Xalqimizda azaldan koʻpchilik ishtirokida oʻtadigan turli bolalar oʻyinlari, choyxona suhbatlari, toy - maʼrakalar, mavsumiy bayramlar - lola sayli, "boychechak" aytish, qovun sayli, qizlar majlisi, kelin salomi, yuz ochtisi, sumalak, kurash, mehmon kutish kabi koʻplab marosimlarimiz oʻzbek xalqiga xos boʻlgan "oʻzbekona", "Sharqona" tarbiyalashda muhim rol oynaydi.

Xalq ogʻzaki ijodimiz ham bolalarda turli axloqiy sifatlarni tarbiyalashda katta rol oynaydi.

Sharqona munosabatda ota - onaga hurmat bilan qaralishi, oilada otani oʻrni alohida boʻlganligi, ota - onaning gapini ikki qilmaslik, ota - onaning izmidan chiqmaslik, shu bilan birga otaga gap qaytarish, unga tik boqish gunoh hisoblanishi kabi holatlarni koʻrishimiz mumkin. Yoki ustozga hurmat bilan qarash kabi xislatlar ham katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Muloqotda turli xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan afsona, rivoyat, ertaklar, maqollar va hikmatlardan foydalanish ham kishini muomala madaniyatni kuchaytiradi va ikkinchidan katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Jamiyatni demokratlashtirish - maktabdagi munosabatlarni insonparvarlashtirishdir. Pedagogik amaliyot davrida talablar bilan birga maktab direktori fan boyicha eng ilg'or deb tanishtirgan o'qituvchining darsiga kirdilar. Haqiqatdan ham, o'qituvchi mavzuni juda yaxshi biladi, qator ko'shimcha adabiyotlardan foydalaniladi, mavzuni yorita oladi. Lekin o'quvchilarga nima bo'lgan? O'qituvchi qiziqarli, mazmunli savollar berayapti. Lekin hamma o'quvchilar pedagog fikrini tshunib yetmayapti, ozgina yordam kerak. Lekin o'qituvchida o'quvchi javobini eshitishga chidam yetishmayapti. Hatto bir qo'l ko'tarib javob bermoqchi bo'lgan o'quvchiga jerkib berdi: "Nimaga qo'lingni buncha chaypaysan? Sendan boshim og'rib ketdi" (Bilmasangnimaga qo'l ko'tarasan?"

Darsdan so'ng talabalar bir ovozdan darsni qoniqarsiz deb baholaydilar. Bu yerda faqat o'qituvchining bilimi emas, balki dars muhiti, o'qituvchi va o'quvchi muloqoti, munosabati muhimdir. Ayniqsa hozirgi kunimizda oldimizga erkin, mustaqil fikrlovchi har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalash vazifasi turganda, bu muloqot aslida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimovning "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nutqida ham alohida ta'kidlanadi: "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasining ko'rgan shaxslar kerak". So'ngra esa Prezidentimiz maktablarda mutlaqo fikr yuritishga o'rgatilmayotganligining qoralab dnydi: "Maktabda biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hech kim hafas qilmaydigan ahvolga tushub qoladi. Maktabdagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishini talab qiladi. Printsip ham tayyor: "Mening aytganim - aytgan, deganim - degan".

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi".

O'zbekistonda demokratik jamiyat kurishning milliy, umumbashariy tamoyillari va qadriyatlarining metodologik asoslari, ilmiy va amaliy jihatlari prezident asarlari va ntklarida chuqur yoritilgan. Tamoyil tushunchasi yo'nalish rus tilida kullaniladigan tendentsiya so'zi esa asli lotinchadan kelib chiqkan bo'lib, tamoyil atamasining mukobilidir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizning yetakchi olimlari tomonidan demokratiyaning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish borasida birmuncha ishlar qilindi. Demokratiyaning muhim umujahon etirof etgan asosiy tamoyillari mavjud. Ular quyidagilar:

- _erkin va adolatli saylovlar;
- _ochiq va hisobot beruvchi hukumat;
- _inson huquqlarning ustuvorligi;
- _hokimiyat organlarining saylab qoyilishi;
- _Fuqarolarning siyosiy va mktisodiy huquqlari mavjudligi va tengligi;
- _qonun ustuvorligi;
- _so'z matbuot va vijdon erkinligining Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanishi;
- _ tayinlash yo'li bilan shakllangan davlat organlarining saylab qoyilgan organlar oldida hisob berish burchliligi;
- _ko'ppartiyaviylik tizimining mavjudligi;
- _ mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning tengligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi
- _umummilliy masalalarning hal etilishida referendumlarning o'tkazilishi;
- _jamiyatda fikrlar xilma-xilligi masalalari samarasi ortishi.

Ma'lumki, O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligiga erishgach, Yer sharining ko'pchilik axolisik abi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etishni o'z oldiga maksd qilib qoydi. Tabiyki bunday jamiyatni shakllatirishda, avvalambor, O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos milliy taimoyillarini jahonda kechayotgan umuminsoniytamoyillar bilan uyg'unlashayotganligini nazardan qochirmaslik kerak.

O'zbekiston axolisining bozor iqtisodiga asoslangan demokratik jamiyat kurishda istiklolimizning dastlabki yillaridayek Prezident I. A. Karimov qoyidagi milliy tamoyillarga jamoatchilik diqqatini karatdi. Bu milliy tamoyillar I. A. Karimovning 1992 yilda yezilgan Istiklol yo'li muammolar va rejalar hamda O'zbekistonning o'z istiklol va tarakkiyet yo'li asarlarida ilmiy jihatdan har tomonlama asoslab berildi. Bu O'zbekistonning o'ziga xos , aql-idrokka asoslangan tarakkiyet yo'li jahon afkor ommasi tomonidan haqli ravishda tarakkiyetning o'zbek modeli degan nom oldi. Aynan ana shu tamoyillarda bir tomondanmilliylilik,ikkinchi tomondan umuminsoniylik yo'nalishlari uyg'unlashadi yoki ularning dialektik mutanosibligi o'z aksini topdi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich izchillik bilan utayotgan O'zbekiston Respublikasi 1994 yil oxiri 1995 yil boshlarida islohotlar o'tkazilishining ikkinchi bosqichiga utdi. Bu davr ichida mamlakatimizda nafakat kuchli ijroya hokimiyatiga asoslangan Prezidentlik respublikasi shakllandi, balki umuminsoniy hamda milliylikka asoslangan zamonaviy parlament – Oliy majlisga ko'ppartiyaviylik, muqobillik, xurfikrlilik asosida saylovlar o'tkazish yo'lida jiddiy qadam qoyildi. To'g'ri hali bu tom ma'nodagi profisional parlament emas edi.Ammo iqtisodiy, madaniy, ma'naviy sohalar kabi ijtimoiy-siyosiy sohada ham islohotlar evolyutsion yo'l bilan olib boriladiki, bu jamiyatimizda baharorlikni ta'minlash uchun asos bo'ldi. Garb namunasi ko'pxollarda individualizm flsafasiga tayanadi va ommani xaddan tashhari siyosiylashtirishga olib keladi. Demak, milliy tamoyillar bilan birga mintakaviy tamoyillar ham mavjud. Ko'rinib turibdiki, I.A.Karimovning ta'kidlashicha, demokratiyani shakllantirishda O'zbekiston uchun Garb namunasi emas, ko'prok Shark namunasi kul keladi. Osiyo mintakasi va musulmon Sharkidagi demokratik qadriyatlar va o'zgarishlar rivojining tajribasi o'ziga xos xususiyatlar, o'ziga xos an'analariga ega Sharkda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilikning fikricha, ustuvorlik zaminida shakllanadi. Osiyo mintakasi va musulmon Sharkining boy tarixiy tajribasiga asoslanib, I.A.Karimov O'zbekistonda demokratik tamoyillarning rivoji to'g'risida nig'oyatda muhim xulosaga keladi.

Demokratik jamiyat kontsepsiyasida milliy, umuminsoy qadriyatlar bilan bir qatorda, diniy qadriyatlarning o'rniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Negaki, ular o'rtasida qati'y chegara yo'q. Bunday fikr bildirishimizga muayyan tarixiy sharoitlarda obektiv zaruriyatlar tufayli jamiyat rivojlanishi uchun alohida ahamiyat kasb etuvchi milliy qadriyatlar diniy qarashlar bagrida shakllanganligi asos bo'ladi. Shunga ko'ra, bizning milliy qadriyatlarimiz faqat islom zaminida vujudga kelmagan, balki zardushtiylik, buddaviylikkabi dinlardan ham ko'p narsalarni olgan. Binobarin, har qanday qadriyatlarning bosh manbai ijtimoiy xayetdir. Buning isboti sifatida xozirgi davrda mamlakatimizda ko'pgina tarixan din bilan bog'liqqadriyatlar o'zlarining diniy mazmunini o'zgartirib, duneviy, milliy qadriyatlarga aylanganligini etirof etish mumkin. Ayni paytda, demokratik jamiyatni barpo etishda din har doim ham uning tarafdori bo'lavermaydi. Ayniksa, xozirgi murakkab o'tish davrida islom g'oyalari va qarashlaridan bir-biriga tubdan qarama-qarshi maqsadlari yo'lida foydalanishga o'rinishlar jonlangan bir paytda, ana shu omilning urnini alohida tahlil etish zarur.

Uning zaruratini Prezident I.A.Karimov alohida va bir necha marta ta'kidlab kelmokda. «Mustaqillik yillarida eng katta kulga kiritilgan yutuklarimizdan biri tarixiy milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, mukaddass dinimizning jamiyat ma'nviy yuksalishidagi urni va ahamiyatining qayta tiklanishidir. Ayni zamonda tajavo'zkor akidaparast kuchlar islom dini xalqimiz uchun mukaddas ekanligidan foydalanib, O'zbekistonni demokratik, ma'rifiy taraqqiyot yo'lidan ogdirishg intilmoqdalar».Keyingi yillarda dunyo mikiyosida islomdan qarama-qarshi maqsad yo'lida foydalanishlar yak'ol misollarda namoyon bo'lmokda.O'zbekistonda demokratik jamiyatni borpo etishda milliy tamoyillarning asosini tashkil etuvchi qadriyatlr ham alohida o'ringa egadir. Mustaqillik tufayli unga bo'lgan yangicha yondoshuvlarga Prezident I.A.Karimovning milliy va umumbashariy qadriyatlar to'g'risidagi metodologik iliy muloxazalari hamda amaliy faoliyalaridagi ko'rsatmalari, tashabbuslari yorqin misoldir. Milliy va umumbashariy qadriyatlar to'g'risidagi bir qator mamlakatimiz olimlarining fikr va muloxazalarini umumlashtirish lozim. Negaki O'zbekistonda

barpo etilayotgandemokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarimizga asoslanadi. Qadriyat – falsafiy va sotsiologik tushuncha. U birinchidan bir obektning ijobiy yoki salbiy qimmatini , ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi baxolovchi jihatini ifoda etadi. Rus tilidagi sennost yani qadriyat tushunchasiga kishilarning ijtimoiy?siyosiy faoliyatiga, manaviy dunyoqarashiga ijobiy yoki salbiy tasir ko'rsatadigan barcha narsa va xodisalar kiritilgan. Ana shunga yaqin nuqtai nazar boshqa ilmiy manbalarda ham bayon etilgan qadriyat vokelikdagi muayyan xodisalarning iqtisodiy ijtimoiy va marifiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlarning mazmuni va harekteriga ko'ra, progressiv va reaksion tiplarga ajratish mumkin deyilgan. Fikrimizcha, bunday tariflar mazkur kategoriyaning uti sigimdor qilish bilan birga, uning asl mohiyatini aniqlashda bir qator ilmiy chalkashliklarni keltirib chiharmokda.

«Qadriyat» deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruxlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shutufayli ular tomonidan baxolanib, kadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari xodisalari majmuini tushunmogimiz lozim.

Har bir millat o'z qadriyatiga ega. Binobarin, uning har bir mamlakat, har bir xalqning bu imkoniyatlaridan kay darajada foydalanishi – demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Xozirgi davrda qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ham ana shundadir. Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istikbolini tasavvur eta olmaydi. Ayniksa, bizning Sharkda xalqning ming yilik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. xalqimizning yaqin o'tmishidagi uzoq vaqt davom etgan kuchli mafko'raviy tazyikka karamay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga utib kelgan o'ztarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarni saqlab holishga muvafak bo'lganligi sababi hamruxida, kalbida doimiy ravshda umumbashariy qadriyatlarga sodik bo'lganligidir.

Biron bir narsa va xodisa , xox u moddiy bo'lsin xox ma'naviy bo'lsin qadriyatga aylanishi uchun ma'lum bir vaqt davr o'tishi kerak. Demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanishi ham shunday bosqichlarni bosib utdi. O'tmishdagi barcha narsalar ham milliy qadriyat bo'la olmaydi. Uning milliy qadriyatga aylanishi uchun o'zini ko'rsata olishi shart.

Demokratik qadriyatlarning muayyansharoitlarda mahalliy milliy, mintakaviy va umuminsoniy shakllarda namoyon bo'ladi. Binobarin, har bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar nogida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istikbolini tasavvur eta olmaydi. xalqning ma'naviy merosi yillar mobaynida Shark xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan kuchli mfk o'raviy tazyikka karamay, O'zbekiston xalqi avlodan avloddga utib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarni hamda o'ziga xos an'analarni saqlab holishga muvaffaq bo'ldi. Binobarin, har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam xodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirsh, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi o'ziga xos jihatlari qoyidagilar:

- A) tug'ilgan makon va ona yurtga extirom:
- B) ajdodlar ruxiga sadokat
- V) kattalarga xurmat, yoshlarga izzat:
- G) insoniy mumalada mulozamat
- D) xayo, andisha, vazminlik, sabr?tokat kabilarning ustuvorligi.

Millat har qanday milliy qadriyatlar tizimida asosiy tayanadiga ijtimoiy tayanch hamdir. Millat milliy qadriyatlarning ham ob'yekti, ham sub'yektidir. Umumbashariy tamoyillar va qadriyatlar qandaydir o'zgarmas, akidaviy tushunchalar emas. Davrlar o'tishi sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni, baxolash mezonlari ham o'zgarib boradi.

Shark demokratiyasi, Garb demokratiyasini tushunish buyicha:

Birinchidan demokratiyaning umuminsoniy qadriyat ekanligiga tayangan holda uni Sharq, G'arb ko'rinishlariga bo'lib o'rganishga nisbatan e'tirozli fikrlarning mavjudligidir.

Sharqona demokratiya orhali Sharqni ulug'lash, fakat yutuklarini kurish, bir tomonlama unga maxliyo bo'lish, o'zini maktash kayfiyati mavjud. Shuning uchun ham uni bo'lib o'rganish, uning o'rtasida «xitoy devori»ni qoyish to'g'ri emas, degan nuqtai nazardir.

Bugun «milliy davlvtchilik», «milliy demokratik davlatchilik», «milliy demokratiya», «sharkona demokratiya» yoki «garb demokratiyasi» degan atamalar o'ziga xos ma'noga ega. Demokratiyaning hamma xalqlar va mamlakatlar uchun yagona bo'lgan mutlak andozasi yo'q. Dunyoni yagona jamiyatga olib borishga da'vo qilgan «Komunizm g'oyasi» kanchalik mantikka zid xodisa bo'lsa, bugun demokratik taraqqiyot yo'lining o'ziga xos xususiyatlarini tan olmaslik, ya'ni demokratiyaning milliy ruhiy negizini, xalqlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarini, xususiyatlarini tan olmaslik shunday zidlikka olib boradi. Bu orqaga qaytish va yagona g'oya asosida demokratiyani an'anaviy tushunishni e'tirof etish bilan barobar bo'lgan bo'lar edi.

Umuminsoniy qadriyatlar inson ma'naviy-ijtimoiy kamolotning qandaydir alohida, boshhalardan ajralgan tomoni emas. Umuminsoniy qadriyatlar milliy v mintakaviy qadriyatlarning umumlashgan ifodasidir. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi. Va rivojlanadi.

Katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mintakaviy kalriyatlardan yana biri - jamoatchilik fikridir. Jamoatchilik fikri odamlar o'rtasidagi bir-biriga yaqinlik, o'zro xurmatning ifodasi bo'lib, keng foydalanish mumkin bo'lgan qadriyatdir. Milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashsa, shundagina jamiyat taarkkiyotining rivojlanishida uning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

«Bugungi kunda, - deya mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, an'anaviy qadriyatlarimizni demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning jamiyatimiz jahon

hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir». Shu nuqtai nazardan, umumbashariy demokratik tamoyillarni qaror toptirish, ko'p bor ta'kidlaganidek, jamiyatimiz taraqqiyotidagi eng murakkab masalalardan biridir.

1.2. Qadriyat va uning psixologik mohiyati

Kundalik muloqotda, ommaviy axborot vositalarining xabarlarila qadriyat, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyatlar kabi soʻzlar nihoyatda koʻp qoʻllanilmoqda. Madaniy boyliklar, yodgorliklar, maʼnaviy meros, anaʼana, urf-odatlariga nisbatan ham qadriyatlar iborasini umumiy atama sifatida ishlatish hollari uchramoqda.

Har bir millatning oʻzi qalridagi madaniyati, tili, anʼanalari, urf-odatlari, marosimlari va obod normalari bor. Dunyo aholisi son jihatdan koʻp yoki kamroq xalq boʻlishi mumkin, ammo madaniy va maʼnaviy sohada bir-biridan kam yoki ortiq millat yoʻq. Har bir millatning oʻziga xos oʻtmishi, madaniy va maʼrifiy qadriyatlari, milliy qahramonlari, boshqa millat tomonidan tahqirlanganishi aslo mumkin boʻlmagan urf-odatlari, turmush tarzi va qon-qarindoshlik belgilari mavjud. Hech qaysi millatning oʻzga millat faoliyatini baholovchi hakam boʻlishga haqqi yoʻq. Biror bir taʼlimot davlat shakli yoki yashash usulini qabul qila olmaganligi uchun hech qachon u yoki bu millat aybdor emas. Shu maʼnoda umuminsoniylik bir millat qadriyatlarini butun olamga yoyish yoʻli bilan emas, balki hamma millat va elatlarning qadriyatlarini asrab-avaylash murosallashtirish, tarix tarozusi saqlab qoladigan qadriyatlarni hurmat qilish va olamdagi milliy rang-baranglikni tabiiy rang-baranglik bilan uzviy aloqada ekanligini anglash yoʻli bilan boyib boradi.

Oʻzbekiston hozirgi davrga kelib bu masalaga alohida eʼtibor berayotganligi, sogʻlom avlodni tarbiyalash, xalq genofondini sogʻlomlashtirish umumdavlat miqiyosidagi vazifaga aylanganligi aslo bejiz emas. Millatning genofondi uning betakrorligini anglatadi, bu betakrorlik esa ushbu millat tarixiy rivojlanishning muayyan davrlari bilan bogʻlanganligini koʻrsatadi. Bu betakrorlikni umuminsoniylik jihatidan baholash – oʻz millati qadriyatlarini xolisona targʻib qilish, oʻzga millatning qadriyatlariga zarar

yetkazmaslikka asoslanadi. Zero, O‘zbekistondagi “sog‘lom avlod uchun” harakat Respublika hududida istiqomat qilayotgan butun xalq kamoloti uchun faollik ekanligi sir emas.

A.Avloniy ta’kidlaganidek, “Iqtisod, deb pul va mol kabi ne’matlarning qadrini bilmakni aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o‘rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas. O‘rni kelganda so‘mni ayamas. Saxovatlik ziddi baxllik o‘lg‘oni kabi, iqtisodning ziddi isrofdir”. Allomaning iqtisod borasidagi shaxs qadrini oshiruvchi sifatlari to‘g‘risidagi bu so‘zlari zamonamiz uchun nihoyatda dolzarb, ammo uning quyidagi fikri undan ham dolzarbdir. “Hozirgi zamonda maqsadga yetmak, o‘z millatiga xizmat qilmak, xalqqa maqbul bo‘lmak uchun ilm va mol lozimdur. Olamdagi barcha millatlarning hol va qudratlari boyliklari ila o‘lchanur. Har yerda boy millatlar ... xo‘ja o‘g‘lonidek, faqirlari ... qul va asir bo‘lib qoladur. So‘zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo‘lmak uchun ilm va marifat ila barobar iqtisod, bu borasinda insof, tuganmas say, bitmas g‘ayrat lozimdur”.

Ma’naviyat bilan bog‘langan qadriyatlar o‘zining namoyon bo‘lish shakli va zamona realliklari bilan aloqadorligiga qarab qadrlanish yoki qadrsizlanish xususiyati jihatidan farq qiladi. Masalan, insoniyat jamiyati uchun moddiy va ma’naviy boyliklarini ishlab chiqarish jamiyatni yangi avlodlar bilan to‘ldirib turish taraqqiyotga erishish tinch-totuvlik va ijtimoiy barqarorlik doimo o‘z qadrini saqlab qoladi.

Millat uchun ham o‘z-o‘zini to‘ldirib turish, ya’ni millatning kelajagini ta’minlash, uning urf-odatlari, an’analari, tili, madaniy va ma’naviy boyliklarini saqlash doimo ham qadrlil bo‘lib qolaveradi. Vaqt shamollari ularning ahamiyatini yo‘qotmaydi o‘chirib yubora olmaydi.

Har bir qadriyat obyektini qadrlash mezoni bor. Bu mezon u yoki bu qadriyatni qadrlashning obyektiv meyorini anglatadi. Ana shu meyorning buzilishi u yoki bu qadriyat qadrining, bir tomondan xaddan ortiq

mutloqlashtirish, ikkinchi tomondan esa, aksincha bu qadrning mutlaqo e'tiborga olinmasligiga sabab bo'ladi. Xullas, qadrlash meyorlarining buzilishi, har qanday holatda ham qadrsizlanishning asosiy sabablaridan biridir.

Shaxsiy qadriyatlarni xaddan ortiq mutloqlashtirish oxir oqibat shaxsiy egoizmga, bu darajadagi qadriyatlarning qadrsizlanishiga olib keladi. bundan tashqari, qadriyatlarning shaxsiy darajada qadrsizlanishi, ba'zida umr ma'nosining qolmaganligi, ma'naviy tushkunlik, hayotdan to'yish, yashashdan voz kechish tarzida ham namoyon bo'ladi.

Qadriyatlarni shaxsiy darajada qadrsizlanishida: a) shaxs qadrini haddan ortiq bo'rttirish; b) shaxs qadriyat obyekti sifatida qadrsizlamaslik; v) ba'zi qadriyatlarning shaxs uchun induvidual tarzda qadrsizlanishi; g) shaxsning qadriyat qadrini yaxshi anglamaganligi, bilmasligi, tushunmaganligi bilan bog'liq sabablar majmuini kuzatish mumkin.

Xuddi shu boisdan ajdodlarimizning ma'naviyatida davr o'zi uchun zarur allomalarni va betakror shaxslarni bir asrda yoki undan ham ortiq davrda (muddatda) yaratadi, degan bashorat quriq mushohada emas, balki tabiatdagi o'zgarishlar, munosabatlar, muvofiqliklar, murojaatlar, inson kamoloti uchun eng qulay (senzitiv) moddalar bilan ta'minlash to'g'risidagi (uning mag'zidagi) tabiiy mayl, layoqat, iste'dod, iqtidor, salohiyat kabilarning baquvvat harakatchan nishonalari, alomatlari imkoniyati yuzasidan ilmiy g'oya yotadi. Shuning uchun xalq, etnos, ulis o'rtasida dohiy, daho har kuni tug'ilmaydi, balki unga nisbatan juda kuchli extiyoj sezilgach, ijtimoiy zaruriyat ustuvorlik qilganda, evolyusion qonuniyat esa imkon berganda, vaziyat pishib yetilganda ixtiyorsiz ravishda sodir bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, qadrlashning teskari bo'lgan qadrsizlanish ko'pqirrali murakkab aksiologik jarayondir. U xilma-xil sohalarda, turlicha tarzda o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi.

II-Bob. Umuminsoniy va milliy qadriyatlar

2.1.Umuminsoniy qadriyatlar

O'zbekistonda insonparvar, demokratik jamiyat qurilishi avj olib borilayotgan hozirgi sharoitda milliy va umum-insoniy qadriyatlarning mushtarakligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz davlat mustaqilligiga erishishi bilan qadriyatlar muammolarini o'rganish yildan-yilga avj olib bormoqda.

Qadriyatlar allaqanday hodisa, voqea yoki narsaning o'ziga xos xususiyati yoki xossasi emas, balki uning mohiyati, o'z navbatida borliqning u yoki bu obektining yashashi, mavjud bo'lib turishi uchun tom ma'nodagi zaruriy shartidir. Har qanday qadriyat ham inson ongi va faoliyatining mahsuli, ya'ni har qanday qadriyat odamlar tomonidan yaratiladi, avlodlar tomonidan o'zlashtiriladi, kishilarning ongi va shuuriga singib, amaliy faoliyatiga qudratli stimul beradi, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlashga alohida e'tibor berila boshlandi. Chunki milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qancha ko'p uyg'unlashgan bo'lsa, ularning taraqqiy etishiga shu qadar keng imkoniyat ochiladi. Ayni paytda milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligining ta'minlanishi milliy istiqloq mafkurasi samara-dorligining muhim sharti bo'lib xizmat qiladi. Mazkur ma'ruza matnida mutaxassislarning bu boradagi fikr va mulohazalari umumlashtiriladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish yo'llari haqida fikr-mulohaza yuritishdan avval, "qadriyatlar" tushunchasining mazmuni, ushbu tushunchada o'z ifodasini topgan obektiv voqelikning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Avvalo, ta'kidlash joizki, mamlakatimiz davlat mustaqilligiga erishishi bilan O'zbekistonda qadriyatlar muammolarini o'rganish yildan-yilga avj olib bormoqda. Aniqroq qilib aytganimizda, qadriyatlar falsafasi shakllanmoqda. Lekin keyingi yillarda chop etilgan ilmiy-falsafiy, xususan, ilmiy-publitsistik

adabiyotlarda “qadriyatlar” iborasini juda keng ma’noda ishlatish, hatto uni “madaniyat”, “ma’naviyat” tushunchalariga tenglashtirish, ba’zi hollarda esa “qadriyatlar” va “an’analar” iboralarini bir o’ringa, bir qatorga qo’yish, tenglashtirish holatlari sodir bo’lmoqda. Shuningdek, ba’zi birovlar “qadriyatlar” tushuncha-siini “moddiy-tabiiy boyliklar” kategoriyasiga o’yenglashtir-moqdalar. Yana boshqa birovlar esa qadriyatlarni moddiy va ma’naviy qadriyatlarga ajratmoqdalar.

Bunday boshboshdoqliklarning a’ujudga kelishi “qadriyat-lar” tushunchasining iazmuni va mohiyati, shakli va ko’rinish-lari, tarbiyaviy ta’sirini tahlil qilishda hali ishonchli metodologik asos hozirgacha yaratilmaganligidan dalolat beradi.

Qadriyatlarning madaniy meros bilan o’zaro aloqadorlik mexanizmi va uning tarbiyaviy imkoniyatlarini tiniqroq tasavvur etmoq uchun ushbu ijtimoiy-madaniy voqeani o’rganishga faqat sotsiologik yoki fenomenologik yondashuvning u’zi kifoya qilmaydi. Ushbu murakkab ijtimoiy-madaniy voqeani tahlil etishda kulturologik yondashuvga asoslanishi-miz a’amarali natija beradi deb hisoblaymiz. Kulturologik yondashuvga asoslanib, “qadriyatlar” tushunchasining iazmuni va mohiyatini, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini kengroq tadqiq etsa bo’ladi. Ayniqsa “iadaniyat-ma’naviyat-qadriyatlar” kontekstining o’ahlil qilinishi qadriyatlar xususida fundamental tasavvurlar hosil qiladi.

Madaniyat falsafiy mushohada obekti sifatida 2-3 ming yildan buyon o’rganilib kelinmoqda. Xuddi shuning uchun ham hozirgacha madaniyatga 200 ortiq turlicha ta’rif berilgan. Bizning fikrimizcha, qadimda madaniyat deganda inson bilan tabiat orasidagi aloqadorlik, insonni tabiatni o’zgartirish ya’ni “ikkinchi tabiat”, “sun’iy muhit” yaratish borasidagi malakasi, mahorati tushunilgan bo’lsa, bizning zamonamizda madaniyat deganda insonning kundalik amaliy faoliyati tufayli yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklari tushuniladi. Xullas, qayerda inson mavjud bo’lsa, qayerda u faoliyat ko’rsatsa, qayerda odamlar biri-ikkinchisi bilan muloqotda bo’lsa, o’sha yerda madaniyat sodir bo’ladi.

Madaniyat deganda faqat odamlarning savodxonligi yoki savodsizligini

tugatish tushunilmaydi. Balki kishilarning iyehnat qilishi, o'qishi, yashashi, ishlashi, maishiy turmushi, bir ibora bilan aytganda, turmush tarzining barcha jabhalaridagi faoliyatining holati, darajasi tushuniladi. Xuddi shuning uchun ham madaniyat inson ongi va faoliyatining ûzaro aloqadorligi darajasini ham ifodalaydi. Insonning kunda-lik amaliy faoliyati moddiy va ma'naviy sohàlarda sodir bo'lgani uchun madaniyat ham shartli ravishda moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi.

Moddiy madaniyat moddiy ishlab chiqarish sohàsida mehnat qilayotgan kishilar faoliyatini xarakterlasa, ma'naviy madaniyat odamlarni ma'naviy ishlab chiqarish borasidagi faoliyatini ifodalaydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash zarurki, har qanday moddiy madaniyatda ma'naviy madaniyatni, har qanday ma'naviy madaniyatda moddiy madaniyatning òa'siri bo'ladi. Boshqacha aytganimizda, moddiy va ma'naviy madaniyat biri-ikkinchisiñiz yashay olmaydi, biri-ikkinchisi bilan dia-lektik aloqadorlikda namoyon bo'ladi.

Ma'naviy madaniyatning iag'zini (yadrosini) qadriyatlar tashkil etadi. qadriyat allaqanday hodisa, voqea yoki narsaning o'ziga xos xususiyati yoki xossasi emas, balki uning mohiyati, o'z navbatida, borliqning u yoki bu obektining yashashi, mavjud bo'lib turishi uchun tom ma'nodagi zaruriy shartidir. qadriyatlar inson bisotida turli-tuman ehtiyojlarning va his-tuyg'ularning mavjudligidan dalolat beradi, atrofida sodir bo'layotgan voqealarni, hodisalarni turlicha baholashlari uchun zamin yaratadi. Chunonchi, birovlar uchun o'ta qadrli, o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan u yoki bu hodisa boshqa birovlar uchun qadrsiz, sariq chaqalik ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlarni oddiy qilib ijobiy yoki salbiy (ahamiyatsiz, ahamiyati kamroq, qadr-qimmati sezilmaydigan), absolyut va nisbiy, obektiv va subektiv qadriyatlarga bo'lish mumkin. Mazmuniga qarab mantiqiy, etik, estetik va narsalar qadriyatlariga bo'lish mumkin. O'z navbatida, xayrli, foydali va zaruriy qadriyatlarga ajratish mumkin. Shuningdek, qadriyat-larni: haqiqatni, ezgulikni, go'zallikni ulug'lovchi qadriyat-larga ajratish mumkin.

Har qanday qadriyat ham inson ongi va faoliyatining mah-sulidir. Boshqacha aytganimizda, har qanday qadriyat odamlar tomonidan, ya'ni odamlarning

ajdodlari tomonidan yaratiladi, boshqa avlodlari tomonidan o'zlashtiriladi, kishilarning ongi va shuuriga singib, amaliy faoliyatiga qudratli stimul beradi, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsulidir, shuning uchun ham qadri-yatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlarining mazmuni va ma'nosi o'zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlarining tarbiyaviy ahamiyatiga baho berganda konkret tarixiy shart-sharoitlarni doimo nazarda tutmoq zarur.

Qadriyatlar insonning orzulari-istaklari, niyatlari-umidlari, bir so'z bilan aytganda, ideal sifatida namoyon bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham, buyuk nemis faylasuflari V. Vindelband, G.Rikkertlar o'zlarining kidlaganidek, qadriyatlar hech qachon obektga ham, subektga ham bog'liq bo'lmagan mustaqil olamni vujudga keltiradi. Bu olam makon va zamon qonun-laridan ustun turadi. Shuningdek, insoniyatning buyuk ma'na-viy xazinasini bo'lgan qadriyatlar hech qachon o'zgarmaydi, balki M.Sheler, N.Gartman aytganidek, insonning qadriyatlar haqi-dagi tasavvurlari o'zgaradi. Butun olam qadriyatlar bilan to'lib-toshgan bo'ladi va borliqqa hamisha yangi ma'no ato etadi. Shuning uchun ham butun voqelik qadriyatlarining "o'ziga xos namoyishi"dan iboratdir.

Hozirgi zamon qadriyatshunos olimlarining fikriga ko'ra, qadriyatlarining ham o'ziga xos qonunlari bor. Bu qonunlar inson irodasiga bo'yso'nmaydi. qadriyatlar obektiv olamning subektiv in'ikosi bo'lgani uchun kishilarning amaliy faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Hatto odamlar turmush tar-zini o'zgartiradi. Xuddi shuning uchun ham kishilar o'zlarining turmush tarzlarini insoniyat yaratgan qadriyatlar talablariga qarab o'zgartirib boradilar.

Amaliyot o'zidan dalolat berayotirki, qadriyatlar jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'ladi va hech qachon undan tashqarida yashamaydi. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlar jamiyat ijti-moiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsuli bo'lib, unda zamonning ruhi, imkoniyatlari, odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar

o'zgarishi bilan qadriyatlarning ma'nosi va mazmuni o'zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham qadriyat-larning tarbiyaviy imkoniyatlariga baho berganda konkret tarixiy shart -sharoitlarni inobatga olish lozim.

Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino qadriyatlar haqida fikr-mulohaza yuritganlarida, eng avvalo, insonning ma'naviy-ahloqiy fazilatlari, xislatlari, xosiyatlarini, insonning ruhiy-ma'naviy kamolati uchun yordam beradigan buyuk xazinasini tushunganlar. Sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniyning e'tirof etishicha, qadriyatlar - borliqning nomoddiy holati bo'lib, odamlarning turmush-tarzi, ehtiyojlari, manfaatlari, orzulari va umid-lari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Masalan, odamlar turmush tarzidagi hamkorlik, kishilarning dushmanga qarshi birlashib kurash zaruriyatidan kelib chiqqan. Abu Ali ibn Sino fikriga ko'ra, qadriyat haqida gap ketsa, eng avvalo, insonning qadr-qimmatini haqida fikr yuritmoq darkor. Uning tushutirishicha, insonning qadri boshqalar bilan qilgan hamkorligi, yaxshi insoniy fazilatlarga intilishi, donoligi, boshqalarga qilgan yaxshiligi bilan o'lchanmog'i darkor.

Musulmon Sharqi mamlakatlarida keng tarqalgan diniy-falsafiy ta'limot - tasavvuf namoyondalari ham, qadriyatlar deganda insonning qadr-qimmatini, uning ruhiy-ma'naviy yetuk-ligiga qarab belgilanmog'i lozimligini qayta-qayta takrorladilar. Xususan, tasavvufning eng yirik oqimlaridan biri kubraviyada ta'kidlanishicha, insonning ruhiy-ma'naviy yetukligini ifodalovchi asosiy mezonlar: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, tavajjuh, sabr, muroqaba, zikr, rizo hisoblansa, tasavvufning boshqa bir oqimi naqshbandiyada qayd etilishicha, insonning ruhiy-ma'naviy kamolatini ifodalovchi mezonlar xush dar dam, nazar bir qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yodkard, bozgasht, nigohdosht, vuqufi adadiy, vuqufi zamoni, vuqufi qalbiy hisoblanadi. Tasavvuf falsafasining buyuk namoyondalari Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Abdu-holiq g'ijduvoni, Aziziddin Nasafiy, Bahouddin Naqshbandiy, Hoja Ahror Valiy kabilar inson ma'naviy qadriyatlarini asosida poklik, hayo, sabr-bardosh, qanoat, chidam, beozorlik, hokisorlik kabi insoniy xislatlarni qo'yishgan. Yuqori-dagi fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, qadriyatlar ichida eng ulug'i, eng a'losi

insondir. Chunki, inson har qanday ma'naviy boyliklarning èjodkoridir. Xuddi shuning uchun ham insonning ongi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, undan tashqarida turgan bironta qadriyat bo'lishi mumkin emas. Insonning qadr-qimmatini, uning jamiyatdagi, davlatdagi, jamoadagi, ilmadagi mavqei, eng avvalo, uning yuksak ma'naviy-ahloqiy yetukligi, professional malakasi bilan o'lchanadi. Shunday ekan, qadriyatlar o'z mohiyati, mazmuniga qarab inson aql-zakovatini, ahloq-odobini, mehnatga halol, vijdonan munosabatini, go'zal did va jismoniy kamolatni ulug'lovchi qadriyatlarga o'linmog'i darkor. qadriyatlarni jamiyat, millat hayotidagi o'rni, ijtimoiy xarakteriga qarab milliy va umuminsoniy, sinfiy yoki diniy, shuningdek kishilarning yoshi, professional xususiyatlariga xos qadriyatlarga bo'lish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi jamiyat qurilishi avj olgan mamlakatimiz sharoitida, inson o'zining shaxsiy-individual xususiyatlariga tayanishi, o'z baxt-iqbolini o'z qo'li bilan yaratishi haqida qayg'urishi, jamiyat va davlat muassasalariga emas, balki o'z qobiliyatiga umid bog'lashi, uning qadr-qimmatini belgilovchi asosiy mezonga aylanayotir.

Insonning qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusi, milliy g'ururi milliy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq. Milliy qadriyatlar har bir kishining tili, tarixi, dini, adabiyoti, san'ati, rasm-rusumlari, urf-odatlarini, bayramu-sayillari, bir so'z bilan aytganda, madaniy-ma'naviy merosi, insoniy fazilatlarini, xislatlarining yig'indisidir. Milliy qadriyatlar o'sha mil-latga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy-madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko'rsatkichdir. Milliy qadriyatlar, shubhasiz, millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganimizda, milliy qadriyatlar millatning o'tmishi va buguni bilan bog'liq. Shuning uchun ham "milliy qadriyatlar millat rivojlanishi bilan rivojlanadi, inqirozga uchrashi bilan qadrsizlanadi. Shuning uchun ham millat o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yingi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida takomil-lashtirib turishi ma'nosida o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgari lanma harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajakka tomon yetkazib

boradigan eng asosiy obektdir” (Nazarov q. AksiologiY. qadriyatlar falsafasi. Toshkent, 1998, 56-bet).

Milliy qadriyatlar millat yaratgan madaniy-ma’naviy merosni, xususan millat kishilariga xos barcha insoniy fazilatlar, xislatlarni o’tmishdan bugunga yetkazadi. Xuddi shuning uchun ham milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga har bir millatning o’zi mas’uldir. Har qanday sharoitda ham, chunonchi biron millat ozod, farovon bo’lganida ham, qullik, tobelik iskanjasiga tushib qolganda ham, unda milliy qadriyatlarni saqlab qolishi uchun ichki imkoniyat mavjud bo’ladi.

Milliy qadriyatlar kishilar tarixiy birligini ta’min-laydigan etnik makonda shakllanadi va turli-tuman shakllarda namoyon bo’ladi. Kishilarning ongi va faoliyatiga o’z ta’sirini o’tkazadi. Odamlarning kundalik turmush tarzida, ularning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarida, manfaatlarida qiziqish-larida yaqqol ko’zga tashlanadi. Shuningdek, milliy qadriyatlar bir joyda qotib qolmaydi, tarixiy taraqqiyot jarayonida o’zga-rib, takomillashib boradi. Yangicha mazmun va yangicha shaklga kiradi.

Milliy qadriyatlar o’tmishdan bugunga tomon harakatda bo’lgan jarayondir. Shuning uchun ham milliy qadriyatlar ajdodlardan avlodlarga o’tib to’radi. O’z navbatida, ajdodlarni avlodlar bilan bog’lovchi ko’prik vosita vazifasini bajaradi. Milliy qadriyatlar millatning etnik xususiyatlari va etnik makoni bilan bog’liq bo’ladi. Lekin milliy qadriyatlar faqat o’sha millat yashayotgan etnik makonda faoliyat ko’rsatadi, undan tashqarida chiqqa olmaydi, deb bo’lmaydi. Milliy qadriyatlar etnik makondan chiqib, boshqa millat qadriyatlari bilan qo’shib-qorilib turadi. Xuddi shuning uchun ham milliy qadriyatlar har bir millatning o’ziga xos qadriyatlarini, umuminsoniy qadriyatlar bilan bog’lovchi halqadir.

Shunday qilib, milliy qadriyatlar, har bir millatning o’ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo’lib, o’sha millat bosib o’tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo’shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu milliy o’ziga xoslik, o’ziga moslik, millat madaniyatida, adabiyotida, san’atida, tilida, dinida, tarixiy xotira-sida, yashash ishlash va fikrlash tarzida, urf-odatlarida, rasm -rusumlarida,

bayramu-sayillarida o'z ifodasini topadi. Milliy qadriyatlar milliy ma'naviy madaniyat ifodasi bo'lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo'shgan munosib hissasining hosilasidir.

Milliy qadriyatlarning iyyegizini urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramu-sayillar tashkil etadi. O'zbek milliy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o'zbeklarning o'zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, biri-biriga suyanish va yaxshi qo'shnihilik, bola-jonlik va ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Bunday insoniy fazilatlar, xislatlarning qàror topishida, shubhasiz islom madaniyatining ta'siri bor. Chunki o'zbeklar bir necha asrlardan buyon e'tiqod qilib kelgan islom madaniyatining asosi hisoblangan "qur'onu Karim" va "Hadisu Sharif" qoidalarida ham insonning insoniy fazilatlarini, xislatlari eng oliy qadriyat sifatida har tomonlama ulug'langan, xuddi shu holat o'zbek milliy qadriyatlari umuminsoniy qadriyatlar bilan tezroq uyg'unlashishi uchun real imkoniyat yaratadi. O'z navbatida xuddi shu holat milliy qadriyatlarimizni tezroq tiklanishi uchun ichki stimuly berayotir.

Milliy qadriyatlarni tiklash - ularga hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga mos yangi mazmun ato etish demakdir. Xuddi shuning uchun ham O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishishi bilan mamlakatimizga hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga javob beruvchi umuminsoniy demo-kratik qadriyatlar xalqimiz turmush tarziga kirib kela boshladi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishishi bilan mamlakatda tinchlik, totuvlik, barqarorlikni yanada mustahkamlash maqsadida jahonning obro'li tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga quydi. Tinchlik, millatlararo totuvlik, barqarorlik, davlatlararo o'zaro hamkorlikni uzluksiz takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublika hukumati-ning tashabbusi bilan 1995 yil 15-16 sentabrda Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan xalqaro seminar-yig'ilishini bo'lib o'tganligi, 1995 yil 10-11 oktabrda O'zbekiston va Tojikiston hukumatlarini mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash muammolarini birgalikda muhokama qilinganligi fikrimizning

isbotidir.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan xalqaro seminar-kengashda BMT, YEXHT, MDH, Islom konferensiyasi tashkilotlari delegatsiyalari, BMT Xavfsizlik kengashiga a'zo mamlakatlar, Markaziy Osiyo mamlakatlari vakillari, shuningdek, mintaqaga tutash davlat-lar delegatsiyalari - jami 31 davlat, 6 xalqaro tashkilot ishtirok etdi. Ushbu seminar-kengash mintaqada xavfsizlik va barqarorlik tizimini o'rnatish va uni amalga oshirish yo'lida, Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari uchungina emas, balki bu mintaqaga chegaradosh ulkan hudud uchun ham juda zarur bo'lgan hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asosni shakllantirishda, turli fikr va yondashuvlarni yuzaga chiqarish va ularni bir-biriga yaqinlashtirishda, shuningdek mintaqada demokratlashtirish jarayonini tezlashtirishda, inson huquqlarini har tomonlama muhofaza qilishda ulkan ahamiyatga ega bo'ldi.

Endilikda tinchlik, totuvlik, barqarorlikning âujudga kelishi nafaqat milliy va umuminsoniy qadriyatlarning iushtarakligini ta'minlayotir, balki mamlakatimizda yashovchi barcha xalqlarni, millatlarni halqaro hamjamiyat bilan birlashtiruvchi vositadir. Insonparvarlik, yaxshilik, sofdil-lik singari umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilgan va birgalikda baham ko'rgan mamlakatgina, xalqgina butun dunyo xalqlariga yaqin va tushunarli bo'lishi, jahon hamjamiyatiga qabul qilinishi mumkin. Faqat ular bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatishi mumkin. Xuddi shu holat o'z navbatida milliy qadriyatlarni umuminsoniy demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashish jarayonini tezlashtiradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashib borayotganligini, mustaqillik yillarida O'zbekistonda vujudga kelgan fuqarolarni tinch, totuv yashashga, barqarorlikka intilishida ham yaqqol ko'rish mumkin. Endilikda tinchlik, millatlararo totuvlik, barqarorlik O'zbekistonda yashovchi barcha xalqlar, millatlar, elatlarning âuyuk ijtimoiy-siyosiy qadriyatiga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qadriyatlar ma'naviy madaniyat bilan bog'liq fenomen bo'lib, murakkab tipologiyaga ega. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar ana shu tipologiyada o'ziga xos o'ringa ega. Ular shaxsga qudratli tarbiyaviy ta'sir

ko'rsatadi, chunki ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar insoniyat ma'naviy taraqqiyotida erishilgan yutuqlar konsent-ratsiyasi bo'lib, shaxs ijtimoiy qiyofasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikka erishga-nidan keyin milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushta-rakligini ta'minlashga alohida e'tibor berila boshlandi. Bu hol qator tadbirlar, say-harakatlarda o'z ifodasini top-moqda.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlashda ko'ppartiyaviylikning qaror topayotganligi real shart-sharoit vazifasini o'tayotir. O'z navbatida, ko'ppar-tiyaviylik jamiyatimiz turmush tarziga demokratik tamoyil-larni kirib kelayotganligining muhim alomatidir. Ko'ppartiya-viylikning qaror topishi fuqarolar uchun tanlash, saralash, musobaqalashish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Fikrlar, mulohazalar rangba-rang bo'lishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Chunki siyosiy partiyalar xalqning muayyan qismini o'z atrofida birlashtiradi. Siyosiy partiyalarning diqqat marka-zida davlat hokimiyatini demokratik saylovlar orqali egallash turadi. Xuddi shuning uchun ham siyosiy partiyalar davlatni idora qilish vakolatiga ega bo'ladi. Davlat hokimiyatini egallash esa, o'z navbatida, siyosiy partiyaning dasturiy maqsadlari, xalqqa bergan saylovoldi va'dalarini bajarish uchun rasmiy muruvvat bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mushtarakligiga asoslangan yangi jamiyat qurilishi boshlanishi bilan turli partiya va harakatlarning paydo bo'layotgani ijo-biy hol qarashlarni rangba-rangligi to'g'ri yo'lini tanlab olishga yordam beradi. qaysi g'oya insoniy bo'lsa, odamlarga foydasi tegsa, o'sha g'oya jamiyatga kerak.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlashda mamlakatlararo madaniyat kunlarining utkazi-lishi katta ahamiyatga ega bo'layotir. Chunonchi, 1994 yil 23 mayda O'zbekistonda qozog'iston kunlari, 1995 yil may oyida qozo-g'istonda O'zbekiston kunlari, 1996 yil aprel oyida O'zbekis-tonda Tojikiston kunlarining utkazilishi o'zbek, qozoq, tojik xalqlari orasidagi qadimiy do'stlik, birodarlik, yaxshi qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlashda salmoqli hissa qo'shdi. Shuningdek, davlatlararo madaniy-ilmiy

aloqalar, xususan xalqaro ilmiy anjumanlar, kongresslar, konfe-rensiyalarni hamkorlikda o'tkarilishi ham milliy va umumin-soniy qadriyatlarning iushtarakligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, 1995 yil 18-sentabr kunlari BMT rahbarligida Nukusda o'tkazilgan Orol dengizi havza-sidagi davlatlarning barqaror rivojlanishi muammolariga bag'ishlangan; 1995 yil 2-3 oktabrda Toshkentda "Germaniya va O'zbekiston: tarixiy, siyosiy va strategik jihatdan qiyoslash muammolari" mavzuida o'tkazilgan xalqaro konferensiyalar ana shunday ahamiyatga ega edi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligini ta'minlashda mamlakatimizda "Turkiston-umumiy uyimiz" shiori ostida amalga oshirilayotgan tadbirlar, xalqaro sport musobaqalari, ayniqsa milliy kurash va tannis bo'yicha o'tka-zilgan iusobaqalarning hissasi ham ayeqiyos bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyat barpo etishning boshlanishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligining ta'minlanishi uchun real shart-sharoit yaratdi. Bu borada O'zbekistonda o'tkazilayotgan qator anjumanlar, tadbirlar millatimiz tarixi davomida vujudga kelgan qadriyatlarni umumjahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida shakllangan qadriyatlar bilan biriktirish imkoniyatini yaratmoqda.

Tarbiya milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini taminlashning muhim sharti.

Ko'p millatli mamlakatimiz sharoitida milliylikka asos-langan baynalmilal tarbiya milliy va umuminsoniy qadriyat-lar mushtarakligini ta'minlashning eng muhim shartdir. Respublikamizda insonparvar, demokratik jamiyat qurish uchun kurash avj olgan hozirgi sharoitda baynalmilal tarbiyani yangi bosqichga ko'tarmoq uchun, eng avvalo, milliylik va baynal-milallik orasidagi dialektik aloqadorlik mexanizmini to'la tushunib olmoq darkor. Milliylik va baynalmilallik tuyg'ulari inson faoliyatida o'z ifodasini nimalarda topadi? Milliylikning baynalmilallikka o'sib o'tish jarayoni qanday sodir bo'ladi? Insondagi milliy va baynalmilal his va tuyg'u-larning mustahkamligini ifodalovchi mezonlar nimalardan iborat? Odamlarda chinakam baynalmilal qadriyatlarni shakl-lantirish

uchun qanday tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish zarur?

Milliylik deganda, eng avvalo, o'z millatini ulug'lash va uni himoya qilish, milliy g'urur va nafsoniyat tuyg'usi, o'zining tili, adabiyoti, madaniyati va san'ati, dini, tarixi va urf-odatlarini, barcha ma'naviy qadriyatlarini qadrlash, o'zi tug'ilib, voyaga yetgan ona diyorini ardoqlash, uning tabiati, daryolari, ko'llari, musaffo osmoni bilan faxrlanish tushuniladi. Baynalmilallik deganda boshqa millat va elatlar manfaatini hamisha e'tiborga olish, ularning tili, adabiyoti, madaniyati, san'ati, tarixi, dini, urf-odatlarini hurmat qilish, qadrlay bilish demakdir. Boshqacha aytganda, bisotida baynalmilallik tuyg'usi bo'lgan inson dastlab o'z millati yoki elatining milliy qadriyatlarini o'zlashtirib oladi. Milliy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali boshqa millat va elat yaratgan umuminsoniy qadriyatlarni, ya'ni insoniyat yaratayotgan barcha ilg'or progressiv qadriyatlarni o'zlashtiradi.

Milliylik va baynalmilallik inson faoliyatidagi biri ikkinchisi bilan dialektik aloqador bo'lgan eng muxim his va tuyg'ulardir. Insonning insoniy fazilatlarini xarakterlovchi ikki holat, ikki darajadir. Bu ikki holat, ikki daraja biri ikkinchisiz yashay olmaydi, mavjud ham bo'lmaydi. Agar uning biri shikastlansa, ikkinchisi ham darhol shikastlanadi. Boshqacha aytganimizda, inson faoliyatidagi bu ikki tuyg'uning biri kuchsizlansa, ikkinchisi ham darhol zaiflashadi. Lekin shuni alohida ta'kidlash zarurki, baynalmilallikning zami-nida milliy ong yotadi. Chunki insonda milliylik tuyg'usi bo'lmasa, u o'zining qaysi millat, elatga mansubligini his qila olmasa, o'sha millat yoki elatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy manfaatlarini tushinib yetmasa, uni himoya qila bilmasa, urf odatlariga rasm-rusmlariga amal qilmasa, madaniyati, ada-biyoti, tili va tarixidan yiroq bo'lsa, bunday kishi chinakam baynalmilalchi bo'la olmaydi. Shoirlar aytganidek, milliy zamindan uzilgan odam vaznsizlik holatida ish ko'rayotgan kosmonavtga o'xshaydi. U na osmonining yiroqligini, na ona yerning azizligini biladigan "manqurtga" aylanadi.

2.2. Milliy qadriyatlar

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash uchun mehnatkashlar orasida olib borilayotgan baynalminal tarbiyaning shakl va uslablariga, mazmuniga alohida e'tibor berish lozim. Ayniqsa, baynalminal tarbiyaning iqtisodiy asosini ishlab chiqish zarur. Chunki ko'p millat va elatni birlashtirgan sobiq ittifoqda baynalminal tarbiyaning iqtisodiy asosi yaratilmagan edi. Ba'zi bir respublikalar boqimanda bo'lib qoldi, bu yerdagi xalqlar boshqalar hisobiga yashayapti, degan o'ylovsiz mushohadalar millatlararo munosabatlarimizga sovuqlik tushirdi, odamlar-ning milliy nafsoniyatiga tegdi. Sobiq ittifoq amaldorlari millat va elatlar, respublikalar ittifoq jamg'armasidan nima olayotganlari to'g'risida ko'proq gapirishdi, boshqalardan nimalar qabul qilib olayotganlari haqida esa gapirishni hohlamadilar.

Xuddi shuning uchun ham ko'p millatli O'zbekiston Sovet hokimiyatining achchiq sabog'ini uqib, baynalmilal aloqalar-ning iqtisodiy asoslarini o'rganadigan alohida institut tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning fikrimizcha, xuddi shu institut ko'p millatli davlat sharoitida turli millat va elatlarning milliy ehtiyojlarini o'rganib, uni qondi-rish yo'llari haqida konkret taklif va rejalar ishlab chiqish-da, qaysi millat, qaysi elat umumdavlat jamg'armasiga qancha hissa qo'shgani, undan nimalar olayotganini aniq hisob-kitob qilishda munosib rol o'ynaydi. "Hisobli do'st ayrilmas", deb bekorga aytishmagan. Albatta, bunda har bir millat yoki elat ishlab chiqarayotgan mahsulotlar, ularning ko'p millatli davlat hamyoniga qo'shayotgan hissalarini jahon bozori narxlarida baholanishi lozim. Ana shunday mexanizm yaratmasdan turib, turli millat va elatni o'zida birlashtirib turgan mamla-katlar sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligini ta'minlab bo'lmaydi. Baynalminal tarbiyaning samarasi ham o'ziga yarasha bo'ladi.

Sovet hokimiyati yillarida baynalmilal tarbiya milliy asosdan ajratib amalga oshirildi. Umumta'lim maktablari o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirib bormadi. Bunday maktabni tugatgan yigit-qizlar orasida qo'liga biron marta o'zbek do'ppisini ushlab ko'rmaganlar borligi sir emas edi. Ko'pgina yigit-qizlarning

ko‘cha-ko‘ydagi yurish-turishlari o‘zbek xalqining udumlarini deyarli eslatmaydi, balki allaqa-chon Yevropalik kishilarnikiga o‘xshab ketadi. Shunday bo‘lishi tabiiy. Chunki baynalmilal tarbiyaga bag‘ishlangan tadbirlar dabdabali uchrashuvlar, hayotdan ajralib qolgan soxta chaqi-riqlar ostida amalga oshirildi. Odamlardagi baynalmilal tuyg‘ular ular o‘qiyotgan yoki ishlayotgan jamoadagi millat va elatning soni, jamoa yoki oilaning boshqa respublikalarda yashovchi kishilar bilan bordi-keldisi, qardosh mamlakatlar bilan amalga oshirayotgan aloqalarga qarab belgilanar edi. Bunday biryoqlamalik tarbiyaviy ishlarimizning samaradorli-gini ko‘tara olmas edi.

Hozirgi sharoitda baynalmilal tarbiyaning samaradorli-gini oshirish uchun odamlarda eng avvalo milliy g‘urur, milliy qadriyatlarni ulug‘lash, vatanparvarlik, do‘sti-birodarlik tuyg‘ularini shakllantirish lozim. Bunday ishni amalga uddalamoq uchun har bir millat va elatning milliy qadriyatlarini ulug‘lash borasidagi jamoat tashkilotlarining faoliyatini tubdan qayta qurish maqsadga muvofiqdir. Bu borada keyingi vaqtlarda respublikamiz shahar va qishloqlarida xalq bayramlari va marosimlarining qayta tiklanishi va ularni takomillashtirishga e‘tiborning oshganligi diqqatga sazovordir. Ramazon va qurbon Hayitlarining nishonlanishi, ayniqsa, Navro‘z bayramini tiklanishi jamoatchilik tomonidan qizg‘in ma‘qullandi. Yaqin o‘tmishda xalq turmushining madaniy va ma‘naviy sohasida ma‘muriyatchilikka yo‘l qo‘yilganligi, asrlar davomida tarkib topgan ananalarni mensimaslik kabi holatlar barham topdi. Har yili 21-martni Navro‘z bayrami, 21 martdan 21 aprelgacha bo‘lgan davrni “rahm-shavqat” va “atrof-muhitni muhofaza qilish oyligi” deb e‘lon qilingani va bu davr ichida “Xotira va qadrlash” kuni, “Birinchi pushta”, “Birinchi ekin”, “Don, maysa va suv” kuni, bolalarning “Boychachak” bayrami, “Lola sayli” kabi ko‘pgina marosimlarning tiklanishi odamlarda milliy g‘ururning va shu orqali umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishida, oxir-oqibatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarak bo‘lishida katta rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligini ta‘minlash uchun mamlakat ta‘lim maskanlari va mehnat

jamoalaridagi baynalmilal tarbiyani milliylik asosida amalga oshirmoq zarur. Bunday tarbiya yordamida har bir kishi eng avvalo o'z milliy qadriyat-lari, tili, yozuvi, urf-odat-lari, tarixi, madaniyati, adabiyo-tini mukammal bilishi, shu orqali boshqa millat va elatlarning ham milliy qadriyatlariga hurmat bilan qarashga malaka va ko'nikma hosil qilishi zarur.

Har qanday ijtimoiy hodisaning, shu jumladan, milliy g'oyani va milliy ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini ochib berish uchun quyidagilarga aniqlik kiritish: tushunchaning ta'rifi (definisiyasi); tushunchaning tavsifi (xarakteristikasi); milliy ma'naviy qadriyatlarning mazmuni; ularning kelib chiqishi va rivojlanishi (evolyusiyasi); ijtimoiy maqsadi va vazifalari (funktsiyalari); tuzilishi (strukturasi); amal qilish usul va vositalari (texnologiyasi); shakllari va ko'rinishlari tasnifi (klassifikatsiyasi) va nihoyat, jamiyat hayotining boshqa sohalariga ta'sirini bilish lozim.

«Qadriyat» tushunchasi — juda keng tushuncha. Uning bir qismi — ma'naviy qadriyatlardir. Milliy ma'naviy qadriyatlar «milliylik», «ma'naviyat» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi.

«Milliy ma'naviy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *Muayyan millat vakglllari uchun zarur va aqamiyatli, aziz va ardokli bo'lgan, manfaati va maksadlariga xizmat kiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, yeoyalar va meyorlar milliy ma'naviy Kadriyatlardir.*

Xar bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddanavlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va Qadrini yo'qotmagan, shu xalqning *iftixor manbaiga* aylangan durdonalardir. Masalan, qirgaz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o'zbeklar Samarqandu Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urfodat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilat-lari ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab

qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol oynaydi.

Milliy ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzuumidlari va ideallari, vijdoni va ornomusi aks etadi.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasmlar baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamona qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'ri bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir.

Milliy G'oya va ma'naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

birinchidan, milliy qadriyatlar milliy g'oya uchun ma'naviy negiz, manba bo'lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, milliy g'oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko'tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili bo'lib hisoblanadi;

uchinchidan, milliy g'oya xalqning tub manfaatlari nuqtai nazaridan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezon bo'lib maydonga chiqadi.

Yuksak ma'naviyat — kelajak poydevori.

Islom Karimov

Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya — jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir.

Ma'naviyat, milliy qadriyatlar va istikdol g'oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil

bo'lib maydonga chiqadi.

O'zbekiston istiqlolining asoschisi Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab taraqqiyotning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini belgilovchi milliy ma'naviy qadriyatlar masalasiga juda katta e'tibor qaratildi. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishning ilmiynazariy, fundamental konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Ayni paytda, buyuk kelajakni yaratish yo'lida xalqni birlashtirib, yakdil qila oladigan, bunyodkorlik ishlariga safarbar etib, ruhiy tayanch bo'la oladigan milliy g'oyani shakllantirish muammosi yurtboshimiz Islom Karimovning diqqat nazaridan bir daqiqa ham chetda qolmadi.

«O'zining eqayotini, oldiga koygan maksadlarini anik tasavvur kiladigan, o'z kelajagi xakida kayeuradigan millat xech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi»¹.

Islom Karimov

Binobarin, ma'naviyat, qadriyat va milliy g'oya — xalqning bugungi hayoti uchun ham ertangi istiqboli uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviyijtimoiy sohalardir.

Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, butungi holati va ertanga istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mexdati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma'lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ko'p asrlik tarixga ega.

O'zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar yo urfodat va marosimlarni tahlil kilish, bularning paydo bo'lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko'rsatadi.

Misol uchun, «Avesto»ni olaylik. Bundan 2700 yil muqaddam o'n ikki ming mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan bu asar paydo bo'lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o'tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to'planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan,

xattotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o'z qimmatini yo'qotmadi.

Davrlar o'tishi bilan milliy ma'naviy qadriyatlar ham o'zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan meyor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi. Bo'nga kundalik hayotimizdan, turmush tarzi kiyinish, ovqatlanish, toyxashamlarni o'tkazish va boshqalardan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Insoniyatning oxirgi yarim ming yillik umri davomida jahon bozori paydo bo'ldi, iqtisodiyot va madaniyatlarning o'zaro ta'siri kuchaydi. XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo'ladigan ta'sir beqiyos darajada zo'raydi. Bu ta'sir, bir tomondan, milliy madaniyatlarning boyishi, qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa, millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo'lgan odat va harakatlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi.

I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bir tuzumdan boshqasiga o'tish davrida aholining ruhiyati va qadriyatlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'z umrini yashab bo'lgan g'oyalar va mafkuraviy aqidalar, zamonga mos kelmaydigan munosabat va fazilatlar o'rnini yangilari bilan to'ldirish osonlikcha kechmaydi. Shularni hisobga olib, aytish mumkinki, milliy o'zlikni saqlash, tarixiy xotirani tiklash, kelajakka komil ishonch hissini uygotish uchun ma'naviyat, milliy ma'naviy qadriyatlar beqiyos ahamiyatga ega.

Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarning tarkibi, ko'rinishlari Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- tarixiy meros va tarixiy xotira;
- madaniy yodgorliklar, osoriatiqalar, qadimiy qo'lyozmalar;
- ilmfan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;

- san'at va milliy adabiyot;
- axloqiy fazilatlar;
- diniy qadriyatlar;
- urfodat, an'ana va marosimlar;
- ma'rifat, ta'limtarbiya va hokazolar.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida *tarixiy meros* va *tariosiy xotira* muhim o'rin tutadi. Ma'naviyatni yuksaltirish va xalqning ruhini ko'tarishda tarixiy meros hamda tarixiy xotiraning juda katta ahamiyati bor. Tarixni haqqoniy o'rganish, undan saboqlar chiqarish lozim.

O'zbek xalqi jahon madaniyati hazinasiga munosib hissa qo'shgan millatlar qatoridan faxrli o'rinni egallaydi. *Madaniy yodgorliklar, me'morchilik san'ati namunalari, kadimiy ko'lyozmalar* — milliy ma'naviyatning bebaho durdonalari, xalqimiz uchun eng qadrli va muqaddas bo'lgan boyliklardir. Bularni avaylabasrash, kelajak avlodlarga yetkazish ma'naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir.

Ilm-fan va uning yutuchushri — milliy yoki hududiy chegaradan chiqadigan, butun jahon e'tirof etadigan, umuminsoniyatga xizmat qiladigan boylikdir. Biroq olimning ijodi va uning ilmiy kashfiyoti, avvalo, uning millati va Vatanini dunyoga tanitadi, milliy qadriyatni jami bashariyatning yutushga aylantiradi.

Milliylik xalqning ruhiyati va ma'naviyati, ayniqsa, *san'at va adabiyot* rivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat'iy nazar, jahonga taniladi, pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida *axlokiy sifat, diniy qadriyatlar* munosib o'rin egallaydi va milliy o'zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo'ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda o'zaro bog'liq bo'lib, jamiyatning ma'naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.

Shularni hisobga olib, prezident Islom Karimov «TurkistonPress» agentligi muxbirining savollariga javob berar ekan, madaniy, ma'naviy, axloqiy

qadriyatlarni saqlab qolish va avloddanavlodga yetkazishda dinning beqiyos xizmati borligini uqtiradi: «*Diniy kadriyatlar, islomiy tushunchalar es&yotimizga shu kadar singib kgtganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'kotamiz*»¹, deb ta'kidlaydi.

Har bir xalq, millat yaratgan ma'naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o'ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa, *urfodat va marosimlarda* to'laonli namoyon bo'ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, milliy o'zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan royalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya va ta'limning milliy xususiyatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimida o'z o'rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog'liq ekanligi qanchalik haqiqat bo'lsa, ularni milliy ruhni tarbiyalash zarurati ham umume'tirof etilgandir. Milliy tarbiya xalqning o'zo'zini saqlash va istiqbolini ta'minlash omilidir.

Xulosa qilib aytganda, milliy ma'naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlar — milliy g'oyaning ma'naviy negizi. Milliy g'oya — millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq falsafasining o'zagidir.

Turli xalqlarning milliy g'oyasi ularning maqsadmuddaolarini, orzuumidi va ishonche'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarix saboqlari guvohlik berishicha, o'tkinchi manfa at va g'aliz niyatlarga tayangan, o'zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko'zlagan yovuz g'oya va mafkuralar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g'oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlarni taraqqiyotga eltgan.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlool g'oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi, Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi.

«Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida quyidagi milliy xususiyatlar qayd etilgan:

— xalqimiz hayotida qadimqadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;

- jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, elyurt tushunchalarining muqaddasligi;
- otaona, mahallakoy, umuman, jamoatga yuksak hurmate'tibor;
- millatyushg o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga — hurmat, kichikka — izzat;
- mehrmuhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi — ayol zotiga ehtirom;
- sabrbardosh va mehnatsevarlik;
- halollik mehroqibat va hokazo»¹.

O'zbek milliy qadriyatlari inson va millat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. Milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehroqibat, muruvvat, andisha, ornomus, sharmuhayo, iboiffat kabi betakror fazilatlar, xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bagrikenglik mehmondo'stlik oqko'ngillilik xususiyatlarini tavsiflash orqali ularni butun qadriyat darajasida o'ringa ega ekanligani ta'kidlash lozim.

Insoniyatning ko'p ming yillik tarixi mobaynida oila, oilaviy munosabatlar juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Turli davrlar bularga o'z ta'sirini o'tkazdi. Mohiyati bir bo'lsada, turli xalqlarda oilaviy munosabatlar turli xil shakllarda namoyon bo'ldi.

O'zbek oilalarida uchto'rt, hatto besh avlod vakillari (ya'ni, bobobuvilar, otaonalar, farzandlar, nevaralar va chevaralar) o'zaro ahillikda, bahamjihat umr kechiradilar.

Har bir bo'ginning o'z burchi va mas'uliyati, o'z erki va mavqei bor. Oila — muqaddas. Oila qurish — o'ta mas'uliyatli ishdir. «Oila eskilik unsuri emas». U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. Yoshlarni tarbiyalash, kamolotga yetkazish, ilmhunar berish, uylijoyli qilish — aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir. O'zbekning hayotdan ko'zlagan asl muddaosi — bolachaqa bo'lish, bularning toyini, orzuhavasini ko'rish. Yosh avlodni hayotga yo'llantirish, bular uchun muayyan boshlanshch nuqta — start pozisiyasi yaratib berishga nisbatan munosabat turli millatlarda turlichadir. Ayrim xalqlar mentalitetida farzandlar voyaga yetgach, oilasi, otaonasini tashlab, faqat o'z kuchi bilan mustaqil

oyoqqa turish uchun uyini tark etadi. O'zi ham oila qurib, farzand ko'rib, uni katta qilganda — u ham avlodlar vorisligiga chek qoyib, oilasini tark etadi.

O'zbeklarda yoshlar uchun juda yuqori start pozitsiyasi yaratib, hayotga yo'llanadi. Uylanayotgan yigitga kamida 12 xonali uy, turmushga chiqayotgan qizga mebel jihozlari va uy anjomlari taqdim etiladi. Ikki yosh farzandli bo'lgach, o'z navbatida, estafetani qabul qilib, keyingi avlodni hayotga tayyorlay boshlaydi. Ushbu milliy qadriyat oilaviy munosabatlarda ham vujudga kelishi mumkin bo'lgan begonalashuv jarayonini bartaraf etadi, avlodlar vorisligi uchun zamin yaratadi. Ayni paytda, bu qadriyat, yoshlardagi boqimandalik begamlik o'z hayoti uchun mas'uliyatni faqat kattalarga topshirib qoyish kabi illatlarni inkor etadi, o'z kelajagani o'z qo'li bilan yaratishga ishtiyoqni ragbatlantiradi. Ahil oilalarda aksariyat masalalar o'zaro fikr almashuv, maslahat va kengash orqali hal etiladi. Erxotin, qaynonakelin, akaukalar orasida sodir bo'ladigan ba'zi ixtiloflar mahalla va qarindoshurug'lar vositachiligada bartaraf etiladi.

Xulosa

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Mamlakatimizda umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi e'tirof etildi, milliy qadriyatlar hamda shaxs manfaatlarining umumbashariy talablarga moslashtirish va uyg'unlashtirish asosiy vazifaga aylandi. Insoniyat foydadan ko'ra qadriyatni qiymatdan ko'ra qadriyatni ustivor biladigan zamonlar yaqinlashib qolmoqda.

Qadriyatshunoslik masalalari hozirgi davrda ham nazariy ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yo'lidan borayotgan O'zbekistonda qadriyatlarning jamiyat hayotidagi ahamiyatini atroflicha o'rganish hayotimizda umuminsoniy tamoyillarning ustivorligini ta'minlash nuqtai nazaridan bu masalalarning ahamiyati yanada oshib bormoqda. Avvalo, yurtimiz sivilizatsiyasiga xos qadriyatlar rivojini bu sivilizatsiya tarixida o'chmas nom qoldirgan olim, mutafakkir va allomalarimizning merosini o'rganish bu boradagi xayrli ishlardan biridir. Ana shu yo'nalishdagi ishlar sivilizatsiyamizning umuminsoniy qadriyatlar taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shganligi boshqa sivilizatsiyalar va xalqlar madaniyatiga omilkor ta'sir o'tkazganligini, yurtimiz jahon madaniyatining o'choqlaridan biri bo'lganligini yanada zamonaviy dalillar biz tavsiflayotgan qadriyatlar sohasiga oid tarixiy asoslarini, zamonaviy yo'nalishdagi aksiologiyaning sharqona izlarini, uning hozirgi zamondagi yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Avvalo istiqlol yo'lidan borayotgan O'zbekistonda shakllanayotgan yangi demokratik qadriyatlar tizimini aksiologik asosda tasvirlab berish, bunda I.A.karimov asarlarida ilgari surilayotgan qadriyatlar borasidagi fikr, xulosa va mulohazalarga asoslangan holda respublikamizda barqarorlik va hamjihatlikning qadriyatlar bilan bog'liq negizlarini ko'rsatish, bu boradagi vazifalarni ochishning samarali yo'llarini izlab topish nihoyatda muhim.

Ikkinchidan, mustaqillikka asoslangan yangi, demokratik qadriyatlar tizimining shakllanish va takomillashish, uning umumjahon qadriyatlar tizimining tarkibiy qismiga hamda mamlakatimiz aholisining birgina ta'minlaydigan ma'naviy mezonga aylanish imkoniyatlarini ko'rsatish katta ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi serqirra jarayonni umumiy boshqarishni to'g'ri tashkil qilish maqsadida, "Mustaqil O'zbekistonda yangi demokratik qadriyatlar tizimini takomillashtirishning kompleks dasturi"ni ishlab chiqish hozirgi davrda qadriyatlar borasidagi amaliyotning eng asosiy masalasiga aylanib qoldi.

Uchinchidan, qadriyatshunoslik muammosi bilan bevosita shug'illanuvchi mutaxassislar, falsafiy bilimlarning shu sohaga aloqador olim va tadqiqotchilari zimmasiga nihoyatda katta vazifalar tushmoqda. Qadriyatlar omilining ta'sirchanligini oshirish kishilarda zamonaviy aksiologik dunyoqarashni shakllantirish borasida bir qator vazifalar bor. Qadriyatlar mavzusi bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish doirasidni kengaytirish, uning jahon mintaqada va respublikamizga xos namoyon bo'lish xususiyat va jihatlarini tahlil qilishni zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish borasida aniq rejalarni ishlab chiqish va ular asosida faoliyat olib borish zarur.

Qadriyatshunoslik qonunlarining mahalliy sharoitimizda qay tariqa amal qilishini namoyon qilish asosida, bu fanning istiqbollarini va samarasini ko'rsatish uchun mustaqil respublikamizda jahon qadriyatshunosligi yutuqlarini keng targ'ib qilinadigan qo'llanma va kitoblarni chop etishni, aksiologiyaning zamonaviy muammolariga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar o'tkazishni yo'lga qo'yish lozim.

O'zbeklarda yoshlar uchun juda yuqori start pozitsiyasi yaratib, hayotga yo'llanadi. Uylanayotgan yigitga kamida 12 xonali uy, turmushga chiqayotgan qizga mebel jihozlari va uy anjomlari taqdim etiladi. Ikki yosh farzandli bo'lgach,

o'z navbatida, estafetani qabul qilib, keyingi avlodni hayotga tayyorlay boshlaydi. Ushbu milliy qadriyat oilaviy munosabatlarda ham vujudga kelishi mumkin bo'lgan begonalashuv jarayonini bartaraf etadi, avlodlar vorisligi uchun zamin yaratadi. Ayni paytda, bu qadriyat, yoshlardagi boqimandalik begamlik o'z hayoti uchun mas'uliyatni faqat kattalarga topshirib qoyish kabi illatlarni inkor etadi, o'z kelajagani o'z qo'li bilan yaratishga ishtiyoqni ragbatlantiradi. Ahil oilalarda aksariyat masalalar o'zaro fikr almashuv, maslahat va kengash orqali hal etiladi. Erxotin, qaynonakelin, akaukalar orasida sodir bo'ladigan ba'zi ixtiloflar mahalla va qarindoshurug'lar vositachiligada bartaraf etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. To'la asarlar to'plami 3 tom. – T. 1996. 386 b
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.,1997- (137-151 b) 328 b.
3. Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T: 1998-32 b.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T: 1999. -184 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: 1999.-50 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.T.: Ma'naviyat 2008 y-176 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O'zbekiston 2011 y
8. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. –T ., 1992. 160 b.
9. Abu Rayhon Beruniy. Tanl.asarlar. T., 1968.1t.-488 b.
- 10.Abulxanova – Slavskaya K.A. Deyatelnost i psixologiya lichnosti-M., 1980.-335 s.
- 11.Ayniy S. Estaliklar. –T., 1953. 312 b.
- 12.Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiy. –M.: MGU, 1980.-515 s.
- 13.Antologiya pedagogicheskoy misli Usbekiskoy SSR/Pod red.S.R. Radjapova, O.S.Abbosovoy i dr.-M.: Pedagogika, 1986.319 s.
- 14.Asmolov A.G.Psixologiya lichnosti. –M.: MGU, 1990.-367 s.
- 15.Asqarov A.O'zbek xalqining kelib chiqish tarixidan // xalq ta'limi. –T., 1996.-1-120 b.
- 16.Beknazarova L, Jabborov A O'qituvchi va o'quvchi hamkorligining psixologik xususiyatlari T.: "Fan" 2008 y- 126 b.
- 17.Bromley Y.V.Etnicheskiye protsessy v sovremennom mire. –M ., 1987. – 448 s.

18. Vanberi A. Ocherki o Sredney Azii (dopolneniye k puteshestviyam po Sredney Azii). – M.: Izd. A.I. Mamantova, 1968. – 365 s.
19. Gaynutdinov R.Z. Psixologiya lichnosti uchitelya uzbekiskoy natsionalnoy shkoli i yeyo formirovaniye v sisteme neprerivnogo obrazovaniya: Diss. ...d-ra psixol. nauk. – Sankt – Peterburg, 1992. – 354 s.
20. Giddinis.E. Sotsiologiya. 2002 y -847 b
21. Jabborov A “Pedagogik psixologiyaniy etnik asoslari” T.: Zarqalam 2006 y -48 b.
22. Izmaylov A.E. Narodnaya pedagogika: Pedagogicheskoye vozzreniye narod Sredney Azii i Kazaxstan.M., 1991.-256 s.
23. Irisov A. Abu Ali ibn Sino. T., 1980.-208 b.
24. Levikin I.T. Sotsialnoye blagopoluchiye – integralniy pokazatel urovnya i kachestva jizni // Psixologiya lichnosti i obraz jizni. – M., 1987.- 93 – 96 s.
25. Leontyev A.N. Chelovek i kultura. M., 1961. 115 s.
26. Leontyev A.N. Lichnost i deyatelnost. – M., 1977. – 123 s.
27. Leontyev A.N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. M., 1977. – 304 s.
28. Mitrofanov K.G. Uchitelskoye uchenichestvo // Pedagogika i psixologiya / Podpisnaya nauchno – populyarnaya seriya. – M., 1991. – № 6 -80 s.
29. Muqanov M.M. Obraz jizni i etnopsixologiya intellektualnoy deyatelnosti // Psixologiya lichnosti i obraz jizni. – M., 1987. -100-102 s.
30. Navoiy A .Mahbub ut qulub. –T.: 1983. -112 b.
31. Narodi mira. Istoriko – etnograficheskiy spravochnik. –M., -Sovetskaya ensiklopediya - , 1988. – 640 s.
32. Pavlov.I.P. Izbranniye trudi po fizologii visshey nervnoy deyatelnosti. –M., 1950. -264 s.
33. Psixologiya lichnosti i obraz jizni /Otv.red.YE.V.Shoroxova –M., 1987. - 319 s.
34. Samoregulyatsiya i prognozirovaniye sotsialnogo povedeniya lichnosti / Pod. Red. V.A.Yadova.M., 1979. -264 s.

- 35.Sarakuev E.A. Natsionalno-psixicheskiye osobennosti studentov i ix uchyot v vospitatelnoy deyatelnosti prepodavateley vuza: Avtoref. diss.kand.ped.nauk.M., 1991. – 20 s.
- 36.Sotsialnaya psixologiya lichnosti /Pod.red. M.I.Bobnevoy, YE.V.Shoroxovoy.M., 1979. 344 s.
- 37.Tarnovskaya a.S.Formirovaniye psixologicheskoy gotovnosti studentov universiteta k pedagogicheskoy deyatelnosti v shkole: Avtoref. diss.kand.ped.nauk. – Kiyev, 1991. – 21 s.
- 38.To‘raqulov E. Rahimov S. Abu rayhon Beruniy ruhiyat va ta’lim – tarbiya haqida. – T, 1992. 80 b.
- 39.Uznadze D.N. Eksperimentalniye asnovi psixologii ustanovki. – Tbilisi, 1951. 210 s.
- 40.Fayziyeva M, Jabborov A “Oilaviy munosabatlar psixologiyasi” T.: 2007 y-144 b.
- 41.Farobiy. A.N. Fozil odamlar shahri. 1993 y -223 b.
- 42.Fransella F., Bannister D.Noviy metod issledovaniya lichnosti. –M., 1987. 232 s.
- 43.Fromm.E.Xarakter i.sotsialniy prsess // Psixologiya lichnosti. -M,1982. -49-54 s.
- 44.Xayrullayev M.M. Farobiy va uning falsafiy risolalari. –T.. 1963.-284 b.
- 45.Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va sharq mutafakkiri.-T, 1971. 312 b.
- 46.Shkuratov V.A. Psixika. Kultura. Istoriya – Rostov-n/D., 1990-256 s.
- 47.Shulga N.A. Polnota jizni lichnosti // Psixologiya lichnosti i obraz jizni. M., 1987. 106-108 s.
- 48.Etnicheskiye steriotipi povedeniya / Pod. Red A.K. Bayburina. – L.. 1985. – 325 s.
- 49.Etnicheskaya istoriya i traditsionnaya kultura narodov Sredney Azii i Kazixstana. – Nukus: Karakalpakstan, 1989, 272 s.
- 50.Etnograficheskoye izucheniye bita i kulturi uzbekov / Otv.red. Ziyayev X.Z. –T., 1972. -160 s.

- 51.Yusupov E. Inson kamolatining ma'naviy asoslari. –T.: 1998. -184 b.
- 52.O'zbek xalq ertaklari. – T.. 1990 -256 b.
- 53.G'oziyev E. Umumiy psixologiya T.: 2010 y-544 b.
- 54.Hikmat durdonalari (Fors tilidan A.Hakimjonov tarjimasi). – T., 1993. - 32 b.
- 55.Febure L. Combost pour l'histoire. p., 1953.
- 56.Lippman W. Public opinion. New York, 1922.